



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2025/1 (14)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining
2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan
o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy
nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin
bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*
ZOXIDOV Azamat Azamjonovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*
ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – *psixologiya fanlari doktori.*
TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Сандова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*
Шоумаров Гайрат Бахрамович – *доктор психологических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*
Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*
Маъруфова Гулнора Махмудовна – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщин и гендерного равенства.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*
Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*
Сандов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*
Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*
Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*
Зокидов Азамат Азамjonovich – *доктор экономических наук, профессор.*
Зияев Азамат Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*
Абдусаматов Хасанбой Усмонjon угли – *доктор психологических наук.*
Туракулов Улугбек Холбутаевич – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Marufova Gulnora Makhmudovna – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*
Zokhidov Azamat Azamjonovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*
Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – *Doctor of Psychological Sciences.*
Torakulov Ulugbek Holbutayevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

MENEJMENT

Xaydarova J.A. Rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish zaruriyati.....	4
--	---

SOTSILOGIYA

Muxamedjanova L. Oilaviy munosabatlarda yuksak ideallar – adolat, muhabbat, do'stlik, birodarlik, o'zaro hurmat-izzat tamoyillari.....	12
Axmedova D.O. Mehnat migratsiyasi feminizatsiyalashuvi: xotin-qizlar psixologiyasi va ijtimoiy identifikatsiya	19
Vaxidova S.A. Gender rollarining evolyutsiyasida ta'lim institutining o'rni: avlodlararo ijtimoiy tahlil.....	26
Komilova X.T. Xotin-qizlar ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining sotsiologik tahlili	37
Xudoyberdiyeva M. O'smir yoshlarda kitobxonlik tushunchasi va kitob o'qishni rag'batlantirishga qaratilgan tadqiqot natijalari tahlili.....	42
Alimasov V.A. O'zbekistonning oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi (ijtimoiy-falsafiy yondashuv).....	47
Samanova Sh.B. Ekologik sivilizatsiya rivojida inson-tabi'at munosabatlarining o'zgarib borishi	53

OILA VA JAMIYAT

To'rayev O.B. Jamiyat transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy xavfsizlik holatiga demografik omilning ta'siri	59
Saipova M.L. Migratsiya dahl qilgan oilalarda voyaga yetayotgan o'smirlarda o'z-o'zini dolzarblashtirish jarayoni	68
Abduraximova F.Y. Oilalarda ma'naviy qadriyatlar vositasida xotin-qizlar faolligini takomillashtirishning innovatsion usullari	73
Ganiyev A.A. The role of pre-migration expectations in post-migration stress among Uzbek immigrants in Russia	77
Toshmurodov M.I. Oilaviy qadriyatlar va ularni harakatlantiruvchi determinantlar tasnifi	82

PSIXOLOGIYA

Bo'riyeva M.Sh. Oila institutini mustahkamlashning psixologik aspektlari	88
Yangiboyeva D.R. Ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari	93
Raximova X. Oilada shaxsdagi stress va o'ziga nisbatan ishonchsizlik moddiy yetishmovchilik hissini yuzaga keltiruvchi psixologik omil sifatida	99
Nasrullayeva A.A. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixosotsial determinantlari	104
Sultanova S.M. Ayollarda aybdorlik hissi vujudga kelishining sabablari	110
Абдуганиева Д.А. Влияние семейного микроклимата на эмоциональное состояние личности в контексте тревожности	115
Асанова Г.М. Процессы социально-психологической адаптации родителей детей, больных онкологией	122
Olimjonova Z.B. Sevgining ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida xorij olimlari tomonidan tadqiqi...128	
Sharipova A.S. Analysis of the features of adaptation of adolescents to society in conditions of living in a family with violence	136

PEDAGOGIKA

Matkarimov A.M. Xalqaro baholash tadqiqotlari asosida oilaning ta'limiy funksiyasini rivojlantirishga qaratilgan tahlil va tavsiyalar.....	141
---	-----

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Hojiyev R.B. Talabalar turar joylarida istiqomat qiladigan qizlarni qo'llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish masalalari (Turkiya tajribasi misolida)	147
Rustamova N.Y. Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari va samaradorligining ilmiy tahlili.....	154
Bakirova N.B. Professional ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash mexanizmlari....	161
Мусаева М.И. Ранняя реабилитация и социализация детей с двигательными нарушениями	168



Vaxidova Sofiya Asratulloyevna,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

GENDER ROLLARINING EVOLYUTSIYASIDA TA'LIM INSTITUTINING O'RNI: AVLODLARARO IJTIMOY TAHLIL

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender rollarining evolyutsiyasida ta'lim instituti o'rnining avlodlararo ijtimoiy tahlili tadqiqotlari olib borilgan. Tadqiqot doirasida bebi-bumerlar X, Y (millenniallar), Z va Alfa avlodlari vakillarining ta'lim olish imkoniyatlari va erishgan ta'lim darajalari tarixiy va qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilindi. Shuningdek, har bir avlodda ta'limga bo'lgan imkoniyatlarning kengayishi gender rollarining shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatgani ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari xalqaro statistikalar va ilmiy adabiyotlar asosida umumlashtirildi hamda bu orqali ta'lim institutining gender tengligini ta'minlashdagi institutsional ahamiyati ochib berildi.

Tayanch so'zlar: gender rollari, ta'lim instituti, avlodlararo tahlil, gender tengligi, ijtimoiy o'zgarishlar.

Аннотация. В данном исследовании изучается роль института образования в эволюции гендерных ролей на основе межпоколенческого социального анализа. В рамках работы проведён историко-сравнительный анализ уровня образования и доступности образовательных возможностей среди представителей поколений бэби-бумеров, X, Y (миллениалов), Z и Альфа. Рассмотрено влияние расширения образовательных возможностей на формирование гендерных ролей в каждом поколении. Результаты исследования обобщены на основе международных статистических данных и научной литературы, что позволило раскрыть институциональную значимость образования в обеспечении гендерного равенства.

Ключевые слова: гендерные роли, институт образования, межпоколенческий анализ, гендерное равенство, социальные изменения.

Annotation. This study investigates the influence of educational institutions on the development of gender roles via intergenerational social analysis. The study encompasses a historical and comparative examination of educational achievement and the availability of educational options throughout the Baby Boomer, Generation X, Y (Millennials), Z, and Alpha generations. The influence of broadening educational options on the development of gender roles across generations was examined. Findings are synthesized based on international statistics and scholarly literature, highlighting the institutional importance of education in achieving gender equality.

Keywords: gender roles, educational institution, intergenerational analysis, gender equality, social change.

Kirish. Gender rollari jamiyat erkaklar va ayollardan kutadigan xatti-harakatlar, burchlar, majburiyatlar va fazilatlarni anglatadi. Ushbu rollar madaniyat, urf-odatlar, an'analar va ijtimoiy me'yorlar ta'siri ostida shakllanadi hamda ular kundalik vaziyatlarda odamlarning o'zini

qanday tutishini boshqaradi. Gender rollarining evolyutsiyasi jamiyatda erkaklar va ayollar qilishlari kerak bo'lgan xatti-harakatlar, burch va majburiyatlarning bosqichma-bosqich o'zgarishi, rivojlanishi va avloddan avlodga o'tib borishini anglatadi. Ularga ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va

siyosiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim gender rollar evolyutsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri bo'lib, erkaklar va ayollarning jamiyatdagi o'rnini o'zgartirish hamda tenglikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki ta'lim erta hayotdan voyaga yetgunga qadar jinsga bo'lgan munosabat, xulq-atvor va idroklarga ta'sir qiluvchi asosiy ijtimoiylashtiruvchi vositadir.

Tarixiy jihatdan ta'lim muhiti jamiyatning standartlarini aks ettiradi, an'anaviy gender stereotiplari va taxminlarini mustahkamlaydi. Avlodlar nuqtayi nazaridan gender rollar evolyutsiyasini o'rganish jamiyatdagi gender munosabatlari rivojlanishining dinamikasini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu turli avlod vakillari orasida erkak va ayollarning vazifa, mas'uliyat, imkoniyat hamda jamiyatdagi rolining o'zgarishlarini tahlil qilish deganidir.

Maqsad va uni asoslash. Ushbu maqolada gender rollarining avlodlararo rivojlanishi va o'zgarishida ta'lim muassasalarining hal qiluvchi rolini o'rganish, ya'ni turli yoshdagi avlodlar orasidagi erkak va ayollarning gender rollari qanday shakllangan va qanday o'zgarib borganligi, yosh avlod vakillarining gender rollarini qabul qilishda an'anaviy tushunchalardan uzoqlashuvi va yangi gender me'yorlarini yaratishda ta'limning roli bo'yicha tadqiqotlar olib borish hamda natijalar taqdim etish maqsad qilingan.

XX asrning 90-yillarida V.Shtraus va N.Xou tomonidan yaratilgan avlodlar nazariyasi nisbatan yangi bo'lib, u psixologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot, tarix va madaniyatshunoslik kabi bir qancha fanlar tutashgan nuqtada joylashgan. Shu bois, bu nazariya bugungi kunda olimlar tomonidan turli sohalaridagi amaliy masalalarni yechish vositasi sifatida qo'llanilmoqda. V.Shtraus va N.Xouning fikricha, tarix inson umri davomiyligiga teng bo'lgan davr, ya'ni 80-90 yillik davrlar bilan rivojlanadi. Bunda inson hayotining bir davri to'rt bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqich uchun jamiyatga ma'lum qadriyatlar va tamoyillar xosdir. Tadqiqotchilar o'z ishlarida Buyuk Depressiya davridan to hozirgi kungacha bo'lgan Amerika millatining har bir avlodining umumlashtirilgan, tipik vakilini batafsil tasvirlab berishgan. Bu ishning natijasida bir nechta avlod turlari ajratib ko'rsatildi: "quruvchilar" yoki "g'oliblar", "jim avlod", "bebi-bumerlar",

X avlodi, Y avlodi yoki "milleniallar", Z avlodi va shakllanayotgan Alfa avlodi. Bir arxetipga mansub avlodlar nafaqat ularni shakllantirgan voqealar sodir bo'lgan davrga to'g'ri keladigan yosh ko'rsatkichini, balki madaniyat, oila va gender rollarining boshqa jihatlariga nisbatan bir qator asosiy qarashlarini ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, bunday avlodlar umumiy qadriyatlar va o'xshash fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'ladi¹.

Avlodlar kesimida ayollarning ta'lim olish imkoniyatlari, demografiyaga ta'siri va mehnat bozoriga kirishi qanday rivojlanishi bo'yicha ko'plab xorijiy olimlar tadqiqot olib borishgan. Jumladan, R.Subrahmanian, ta'lim va gender tengligi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni, ta'lim olish kirish imkoniyatida gender tengligini rivojlantirish, gender rollarining idrok etishga ta'sirini o'rganadi. Ta'lim gender tengligini targ'ib qilish uchun teng imkoniyatlar taqdim etish va yanada tenglik tarafdori bo'lgan qarashlarni shakllantirish orqali muhim ahamiyatga ega. Muallif o'g'il va qiz bolalarning ta'limda teng ishtirok etishi bilan tavsiflanadigan gender paritetiga erishish gender tengligi uchun asosiy shart ekanligini ta'kidlaydi. Ta'limda keng qamrovli gender adolatni rivojlantiradigan gender tengligi sezgir muhit va natijalarni talab etadi².

Van Bavel va uning hamkasblari tomonidan 15 ta mamlakatdagi "baby boomer" avlodlari orasida kuzatilgan tug'ilish dinamikasini va buning ayollar ta'lim darajasi bilan bog'liqligi bo'yicha tadqiqot olib borilgan. Tadqiqotda XX asrning o'rtalaridan boshlab Yevropa va AQShda ayollarning ta'lim darajasi oshishi va uning tug'ilish ko'rsatkichlariga ta'sirini tahlil qilishgan. Unga ko'ra, ushbu holatlar demografik o'tish jarayonining oldingi bosqichlaridagi o'ziga xos xususiyatlar bilan bog'liq bo'lib, keyingi davrlarda gender rollaridagi inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'liq yangi tug'ilish tendensiyalarining shakllanishi uchun zamin yaratgan. Mualliflar ushbu tadqiqot orqali gender inqilobi bilan bog'liq demografik jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradigan muhim

¹ Исаева М. Поколения кризиса и подъема в теории В.Штрауса и Н.Хува / М.Исаева // Знание. Понимание. Умение. — 2011. — № 3. — С. 290-295.

² Subrahmanian, R. (2005). Gender equality in education: Definitions and measurements. International Journal of Educational Development, 25, pp. 395-407.

ilmiy asoslarni yaratishdi³. Ta'limda gender tengligi iqtisodiy o'sish bilan ijobiy bog'liqlikka ega. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ayollar ta'limi iqtisodiy o'sishga erkaklar ta'limiga nisbatan kattaroq ta'sir ko'rsatadi, bu esa ta'limdagi gender farqlarini yo'q qilishning iqtisodiy foydalari muhimligini ta'kidlaydi⁴.

Ayrim kontekstlarda madaniy normalar va patriarxal qadriyatlar ta'limning gender rol munosabatlariga ta'sirini, ayniqsa, nikoh bilan bog'liq sohalarda cheklaydi. Gender normalari ta'lim olish darajasi va kasb tanlashga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu esa STEM kabi sohalarda gender farqlarining paydo bo'lishiga hissa qo'shadi⁵. Maktablar gender ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi va ko'pincha jamiyatdagi gender rollarini mustahkamlaydi. Biroq, ular maqsadli ta'lim strategiyalari orqali gender tengligini targ'ib qilish imkoniyatiga ham ega⁶.

Ushbu tadqiqotda avlodlar bo'yicha ta'lim darajasining dinamikasini aniqlash va solishtirish uchun quyidagi metodologik yondashuv, ya'ni qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Mazkur usul turli avlod vakillari (bebi-bumerlar, X, Y (milleniallar), Z va Alfa) orasidagi ta'lim darajasini va unga bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, tarixiy-konseptual va statistik usullardan foydalanildi, ochiq manbalar, xalqaro tashkilotlar (YuNESKO, OECD, Pew Research Center) ma'ruzalari, statistik hisobotlar, ilmiy jurnallar va avvalgi ilmiy tadqiqotlar materiallaridan foydalanildi. Har bir avlodning ta'lim olish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatgan tarixiy-iqtisodiy shart-sharoitlar o'rganildi. Avlodlar o'rtasida ta'lim darajasining ko'rsatkichlari taqqoslandi va statistik ko'rsatkichlar asosida umumlashtirildi. Har bir avlod uchun ta'lim darajasi alohida-alohida aniqlanib, keyinchalik o'zaro solishtirildi. Statistika va dinamik o'zgarishlar diagramma, jadval va grafik

ko'rinishda aks ettirildi. Avlodlar bo'yicha ta'lim olish imkoniyatlariga ta'sir qiluvchi asosiy omillar tahlil qilindi. Tadqiqot global ko'lamda olib borildi, biroq AQSh, Rossiya va OECD mamlakatlari misolida batafsil ma'lumotlar berildi. Olingan natijalar tizimli va qiyosiy shaklda umumlashtirilib, aniq statistik ko'rsatkichlar, jadval va grafiklar shaklida taqdim etildi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Demografiyada avlod deb muayyan davr mobaynida yoki bir vaqtning o'zida bir xil demografik hodisalarni boshdan kechirgan aholi guruhi tushuniladi. Sotsiologiya va madaniyatshunoslikda yuqorida keltirilgan mezonlarga qo'shimcha ravishda o'xshash iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlarda ijtimoiylashuv jarayoni ham inobatga olinadi. Bunda avlod tushunchasi kengayib, insonning tug'ilgan paytidan to o'z farzandlari tug'ilguniga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi.

2025-yil mart oyi holatiga ko'ra, yer yuzi aholisi 8,21 milliard kishini tashkil etmoqda⁷. O'zbekiston aholisi soni bo'yicha dunyoda 30-o'rinni egalladi, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisi 37,5 million kishiga yetib, bu sayyoramiz aholisining 0,46 foizini tashkil etmoqda. O'tgan yili tug'ilish ko'rsatkichi 2017-yildan beri birinchi marta 3,7 foizga pasaydi, 2024-yilda ham so'nggi 10 yil ichidagi eng kam nikoh qayd etildi⁸. 2025-yil holatiga ko'ra, dunyoda 4,14 milliard erkak mavjud bo'lib, bu dunyo aholisining 50,27 foizini tashkil qiladi. Dunyodagi ayollar soni 4,09 milliardga baholanib, bu dunyo aholisining 49,73 foizini tashkil etadi⁹. O'zbekistonda esa jami aholining 18,9 millioni, ya'ni 50,4 foizini erkaklar, 18,6 millioni, ya'ni 49,6 foizini ayollar tashkil etmoqda¹⁰.

Bugungi kunda dunyoda bir vaqtning o'zida "bebi-bumerlar", X, Y, Z va Alfa kabi 5 avlod yashayapti. "Bebi-bumerlar" deganda Ikkinchi jahon urushidan keyin, odatda, 1946–1964-yillar oralig'ida tug'ilgan avlod vakillari nazarda tutiladi. Turli mamlakatlardagi ta'riflar va ma'lumotlarni to'plash usullaridagi farqlar tufayli aniq jahon

³ Van Bavel J., Klesment, M., Beaujouan, É., Brzozowska, Z., Puur, A., Reher, D., Requena, M., Sandström, G., Sobotka, T., & Zeman, K. (2018). Seeding the gender revolution: Women's education and cohort fertility among the baby boom generations. *Population Studies*, 72. pp.283-304.

⁴ Minasyan, A., Zenker, J., Klasen, S., & Vollmer, S. (2019). Educational gender gaps and economic growth: A systematic review and meta-regression analysis. *World Development*.

⁵ Verdugo-Castro, S., García-Holgado, A., & Sánchez-Gómez, M. (2022). The gender gap in higher STEM studies: A systematic literature review. *Heliyon*, 8.

⁶ Molla, E. (2016). The Role Of School In Gender Socialization, 03.

⁷ World Population: Past, Present, and Future // <https://www.worldometers.info/world-population>

⁸ gazeta.uz saytida e'lon qilingan "O'zbekiston aholisi 37,5 milliondan oshdi" nomli maqola ma'lumotlari // <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/24/population-uz>

⁹ Gender ratio in the World <https://statisticstimes.com/demographics/world-sex-ratio.php>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi; gender statistikasi; gender.stat.uz

raqamlarini belgilash mushkul bo'lsa-da, taxminlarga ko'ra, bebi-bumerlar dunyo aholisining taxminan 15 foizini tashkil etadi. AQSH Statistika byurosi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil holatiga ko'ra, 1946–1964-yillarda tug'ilgan bebi-bumerlar avlodi Qo'shma Shtatlarda taxminan 73 million kishini tashkil etib, bu AQSH aholisining 20,93 foiziga to'g'ri keladi¹¹.



1-rasm. 2024-yil holatiga ko'ra dunyodagi besh avlod statistikasi (mlrd kishi)¹²

X avlod, odatda, 1965–1980-yillarda tug'ilgan kishilar sifatida ta'riflanadi va dunyo aholisining taxminan 17 foizini tashkil etadi, 2025-yilga kelib, dunyo aholisi taxminan 8 milliardga yetganda, yer yuzida 1,36 milliardga yaqin X avlodi vakillari borligini anglatadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida esa X avlodi mamlakat aholisining taxminan 19,9 foizini tashkil etib, bu jami 65 million kishiga to'g'ri keladi¹³.

Y avlodi, odatda, millenniallar deb ataladigan, 1981-yildan 1996-yilgacha tug'ilgan insonlarni o'z ichiga oladi. 2020-yil ma'lumotlariga ko'ra, bu avlod dunyo bo'ylab taxminan 1,8 milliard kishini tashkil etib, bu yer yuzi aholisining qariyb 23 foiziga teng bo'lishini bildiradi. Millenniallarning taqsimlanishi mintaqalar bo'yicha farqlanadi. Ularning eng ko'p qismi Osiyoda istiqomat qiladi. Bu qit'ada taxminan 1,1 milliard millennial bo'lib, ular qit'a aholisining 24 foizini tashkil etadi¹⁴.

¹¹ Wikipedia contributors. (2025, March 28). Baby boomers. Wikipedia // https://en.wikipedia.org/wiki/Baby_boomers

¹² Muallif ishlanmasi.

¹³ [generational power index](https://www.visualcapitalist.com/gpi/gen-x/); by visual capitalist; <https://www.visualcapitalist.com/gpi/gen-x/>

¹⁴ There are 1.8 billion millennials on Earth. here's where they live, World Economic Forum. (n.d.) // <https://www.weforum.org/stories/2021/11/millennials-world-regional-breakdown/> (accessed April 4, 2025).



2-rasm. 2024-yil holatiga ko'ra O'zbekistondagi 5 avlod statistikasi (mln kishi)¹⁵

Z avlodi, odatda, 1996–2010-yillar oralig'ida tug'ilganlar sifatida ta'riflanadi. Bu avlod dunyo aholisining taxminan 25 foizini tashkil etib, tarixdagi eng yirik avlod kogortasiga aylangan. 2025-yilga kelib, dunyo aholisi taxminan 8 milliard kishi deb baholanganda, dunyoda Z avlodiga mansub 2 milliardga yaqin odam borligini anglatadi¹⁶. 2010-yildan 2024-yilgacha tug'ilgan odamlarni o'z ichiga olgan Alfa avlodi 2025-yilga kelib taxminan 2 milliard kishini tashkil etishi kutilmoqda, bu esa uni tarixdagi eng ko'p sonli avlodga aylantiradi. Qo'shma Shtatlarda Alfa avlodi aholining taxminan 13 foizini tashkil qiladi¹⁷.

O'zbekiston aholisini avlodlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonning umumiy aholisi 37 million kishiga yetdi. Shundan bebi-bumerlar avlodi 3,368 million kishi (9,1%)ni, X avlodi 7,876 million kishi (21,2%)ni, Y avlodi 11,521 million kishi (31,13%)ni, Z avlodi 11,654 million kishi (31,49%)ni va eng so'nggi Alfa avlodi 2024-yil boshida 11,328 million kishi (30,6%)ni tashkil etdi (2-rasmga qarang).

O'zbekistonliklarning 5 avlodini jins bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bebi-bumerlar avlodida 1 million 815 ming nafar ayol va 1 million 553 ming nafar erkak, X avlodida esa 3 million 995 ming nafar ayol va 3 million 881 ming nafar erkak yashamoqda. Y avlodida bu ko'rsatkichlar ayollar uchun 5 million 692 ming, erkaklar uchun esa 5 million 829 ming kishini tashkil etmoqda, Z avlodida erkaklar soni 5 million 983 ming, ayollar soni esa 5 million 971 mingni tashkil qilgan bo'lsa, eng so'nggi Alfa avlodida ayollar 5 million 460 ming, erkaklar esa 5 million 867 ming kishini tashkil etdi (3-rasmga qarang).

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

¹⁶ Discover latest Gen Z statistics (2025) | StatsUp. (n.d.). <https://analyzify.com/statsup/gen-z>

¹⁷ Topic: Generation Alpha in the United States. (2024, July 3). Statista. <https://www.statista.com/topics/12495/generation-alpha-in-the-united-states/#topFacts>



3-rasm. 2024-yil holatiga ko'ra O'zbekistonda besh avlodning jinsi bo'yicha statistikasi (million kishi)¹⁸

Bebi-bumerlar avlodi an'anaviy gender rollari aniq belgilangan sharoitda ulg'aydi. Erkaklar oilaning asosiy boquvchisi sifatida moliyaviy ta'minotga mas'ul bo'lgan bo'lsa, ayollar uy xo'jaligi va farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullangan. Biroq, rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, AQShda 1960-yillarda mamlakat jamiyatda muhim o'zgarishlar yuz berdi. Fuqarolik huquqlari harakati va feminizmning rivojlanishi an'anaviy gender rollarini qayta ko'rib chiqishga turtki bo'ldi. Shu davrda ayollar kasbiy o'sish va moliyaviy mustaqillikka intilib, mehnat faoliyatida ancha faol ishtirok eta boshladilar. Bu esa oilaviy qadriyatlar va turmush o'rtoqlardan kutilayotgan vazifalarning asta-sekin o'zgarishiga olib kela boshladi. Shuningdek, ta'lim bebi-bumerlar orasida gender rollarining o'zgarishida hal qiluvchi ahamiyat kasb eta boshladi. Ayollarning oliy ta'lim olish imkoniyatlari kengayishi ularning kasbiy o'sishi va moliyaviy mustaqilligiga zamin yaratdi. Bu esa, o'z navbatida, ayollarning oila va jamiyatdagi o'rni haqidagi an'anaviy qarashlarning o'zgarishiga olib keldi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, butun dunyoda ayollar oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Aynan bebi-bumerlar avlodi davrida ta'lim olish imkoniyati sezilarli darajada kengaydi: yangi maktab va universitetlar ochildi, urushdan qaytgan ko'plab kishilar ayrim mamlakatlarda davlat dasturlari asosida o'qish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Sobiq SSSR davlat siyosati bebi-bumerlar avlodiga to'liq savodxonlik va o'rta ma'lumotga erishish imkonini berdi. 1970-yillarga kelib mamlakatda umumiy o'rta ta'lim to'liq joriy etildi. Biroq o'sha paytda magistr yoki fan nomzodi darajasiga erishganlar juda ozchilikni

tashkil qilgan. Bebi-bumerlar oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limga unchalik ham qiziqish bildirmagan va bunday ta'lim, asosan, ilmiy xodimlar uchungina mavjud bo'lgan¹⁹. Umuman olganda, bebi-bumerlar avlodi an'anaviy gender rollaridan ko'proq teng huquqli munosabatlarga o'tish jarayonini boshdan kechirdi. Bunda, ham erkaklar, ham ayollar kasbiy faoliyat va oilaviy majburiyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlashga intildilar. Bebi-bumerlarning aksariyati hozirgi kunda ham mehnat faoliyatini davom ettirmoqda²⁰.

X avlod 1965–1983-yillar oralig'ida tug'ilgan insonlar an'anaviy gender rollariga ta'sir ko'rsatgan muhim ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar davrida ulg'aydi. Oldingi avlodlardan farqli o'laroq, X avlod vakillari turli xil oilaviy tuzilmalar va noaniq gender rollariga duch kelishdi. X avlod ayollari kasbiy o'sish va moliyaviy mustaqillikka faol intilishi natijasida ayolning oila va jamiyatdagi roli haqidagi an'anaviy qarashlar o'zgardi. Biroq, bu o'zgarishlarga qaramay, X avlodning ba'zi vakillari oilaviy munosabatlar va gender rollari bo'yicha an'anaviy qarashlarini saqlab qoldi²¹.

1970–1980-yillarda X avlod vakillari o'rta va oliy ta'lim tizimi kengayishda davom etayotgan davrda ulg'aydi. Rivojlangan mamlakatlarda bu avlod uchun o'rta maktabni tamomlash me'yorga aylandi hamda oliy ma'lumotli erkak va ayollar soni borgan sari ko'paya boshladi. AQShda X avlodining 29 foizi 30 yoshga yetganda bakalavr yoki undan yuqori darajadagi diplomga ega bo'ldi. Bu esa xuddi shu yoshdagi bebi-bumerlarga qaraganda biroz ko'proq ulushni tashkil qildi. Bundan tashqari, X avlodi uchun ta'limning yangi shakllari paydo bo'la boshladi: 1980-yillarda maktablarga kompyuterlar kirib keldi, birinchi masofaviy ta'lim shakllari paydo bo'ldi, bu esa asta-sekin bilim olish imkoniyatini kengaytirdi²².

¹⁹ Количество россиян с высшим образованием превысило 31 процент. (2021, June 14) // <https://rg.ru/2021/06/15/kolichestvo-rossiian-s-vysshim-obrazovaniem-prevysilo-31-procent.html>.


²⁰ FasterCapital: The global venture builder and online incubator - FasterCapital. (n.d.). FasterCapital // <https://fastercapital.com/ru/>

²¹ Леонова, Е. (2025, March 26). Теория поколений от X до Z (и почему это важно). HURMA // <https://hurma.work/ru/blog/teoriya-pokolenij-ot-x-do-z-cto-nuzhno-znat-cto-by-rabotat-vmeste>

²² Mitchell, T., & Mitchell, T. (2024, April 14). Millennial life: How young adulthood today compares with prior generations. Pew Research Center // <https://www.pewresearch.org/social-trends/2019/02/14/millennial-life-how-young-adulthood-today-compares-with-prior-generations-2>

¹⁸ Muallif ishlanmasi.

Sobiq SSSRda bu avlod yoshlari orasida oliy ma'lumotli kishilar ulushi 20-30 foizga yetib, oldingi avlod ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada oshib ketdi. Har bir keyingi avlod yanada savodliroq bo'lib bordi. 1981–1985-yillarda tug'ilganlarning 31 foizi oliy ma'lumotga ega bo'ldi, bu esa X avloddan boshlangan o'sish tendensiyasini aks ettiradi. Bu o'sish keyingi yillarda ham davom etdi, 2010-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyaning 25-64 yosh oralig'idagi katta yoshli aholisi orasida 27,5 million kishi oliy ma'lumotga ega bo'lib, bu ko'rsatkich mamlakatda ta'lim darajasining yanada oshganini isbotlaydi²³.



4-rasm. O'zbekistonda 2024-yil oxiriga kelib oliy ta'lim muassasasi diplomiga ega bo'lgan uch avlodning yosh va jins bo'yicha statistikasi (foiz hisobida)²⁴.

Afsuski, O'zbekistonda oliy ma'lumotga ega bo'lgan X avlod vakillari (taxminan 1965–1980-yillarda tug'ilganlar) foizi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Biroq ba'zi umumiy ma'lumotlar asosida bir qanchalarini keltirib o'tishimiz mumkin. 2000-yilda O'zbekistonda mehnat qilayotgan aholining taxminan 15 foizi oliy ma'lumotli bo'lgan. O'zbekiston mustaqilligi davrida aholining savodxonlik darajasi 1991-yildagi 97,7 foizdan 2000-yilda 99,3 foizgacha oshdi²⁵. Ushbu ma'lumotlarni inobatga olgan holda,

²³ Дудырев, Ф. Ф., Романова, О. А., Шабалин, А. И., & Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики», Институт образования. (2017). СТАРШАЯ ШКОЛА И ЕЕ АЛЬТЕРНАТИВЫ В СОВЕТСКОЙ И РОССИЙСКОЙ ПРАКТИКЕ [Современная аналитика образования]. Современная Аналитика Образования, № 6(14), 52. <https://ioc.hse.ru/pubs/share/direct/408112846.pdf>

²⁴ Muallif ishlanmasi.

²⁵ Namangan davlat universiteti // <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/01/NamDU-ARM-12430.pdf>

O'zbekistonda oliy ma'lumotga ega bo'lgan X avlod vakillarining ulushi taxminan 15-20 foizni tashkil etgan deb taxmin qilish mumkin. Shunday qilib, X avlod an'anaviy gender rollaridan erkaklar ham, ayollar ham kasbiy faoliyat va oilaviy majburiyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga intiladigan yanada teng huquqli munosabatlarga o'tishni boshdan kechirdi. Ta'lim xotin-qizlarga o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun yangi imkoniyatlar taqdim etish va gender rollariga nisbatan jamoatchilik kutilmalarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatish orqali ushbu o'zgarishga hissa qo'shgan asosiy omil bo'ldi²⁶.

O'zbekiston Respublikasi statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonda 18 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan (Z avlod) oliy ma'lumotli erkaklar soni 52,7 foizni, ayollar esa 47,3 foizni tashkil etgan. Shu davrda Y avlodiga mansub, ya'ni 30 yoshdan 39 yoshgacha bo'lgan oliy ma'lumotli ayollar ulushi 56 foizni, erkaklar esa 44 foizni tashkil etgan. X avlodiga mansub oliy ma'lumotli ayollar 2024-yilda 57,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, erkaklar ulardan 15 foiz kamroq – 42,9 foizni tashkil etgan (4-rasmga qarang).

Y avlod milleniallar, deb ham ataluvchilar, taxminan, 1980-yillar boshidan 1990-yillar oralig'ida tug'ilgan insonlarni o'z ichiga oladi. Bu avlod raqamli texnologiyalar va globallashtirish jadal rivojlanayotgan davrda ulg'aydi, bu esa ularning gender rollari va qadriyatlarini idrok etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Y avlod vakillari oldingi avlodlarga nisbatan gender rollarini moslashuvchanroq va tenglikka asoslangan tarzda qabul qilishga moyil bo'lib, ular erkaklar va ayollar majburiyatlari haqidagi an'anaviy qarashlarni rad etib, tenglik va xilma-xillikka intiladilar. Bu ularning kasbiy faoliyatida, oilaviy munosabatlarida va ijtimoiy aloqalarida namoyon bo'ladi.

Ta'lim milleniallar orasida gender tushunchalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi, ayollar uchun oliy ta'lim olish imkoniyatlarining kengayishi ularning kasbiy o'sishi va moliyaviy mustaqilligiga yordam berdi, bu esa, o'z navbatida, ayolning oila va jamiyatdagi o'rni haqidagi

²⁶ Кашкаров, И. Д., & Тарасовская, А. М. (2022). АНАЛИЗ ЦЕННОСТЕЙ ПОКОЛЕНИЙ X И МИЛЛЕНИАЛОВ. In МГТУ им. Н.Э. Баумана, Политехнический Молодежный Журнал (p. 1) [Journal-article] // <https://doi.org/10.18698/2541-8009-2022-08-817>

an'anaviy qarashlarni o'zgartirdi. Bundan tashqari, gender tenglikni targ'ib qilishga qaratilgan ta'lim dasturlari yoshlarda tenglik va xilma-xillikni hurmat qilish muhimligini anglashni shakllantirdi. Y avlodi gender munosabatlarida tenglikka moyillik ko'rsatmoqda. Bunda ta'lim an'anaviy rollar va stereotiplarning o'zgarishiga hissa qo'shuvchi muhim omil hisoblandi²⁷.

1-jadval

Dunyoda 1924–2025-yillar davomida erkaklar va ayollar gender rollarining rivojlanish tendensiyalari²⁸

Avlod	Tug'ilgan yillari	Erkaklarning gender rollari	Ayollarning gender rollari	Ta'limning ta'siri
An'anachilar	1928–1945	oilaning asosiy boquvchisi, oila boshlig'i va qaror qabul qiluvchi, ijtimoiy hayotda faol ishtirokchi	uy-ro'zg'or yuritish va farzand tarbiyasiga e'tibor qaratish, oilaviy qadriyatlarni asrash	ayollarning ta'lim olish imkoniyatlari cheklangan
Urushdan keyingi avlod	1946–1964	oilaning asosiy boquvchisi, ammo karyera va shaxsiy yutuqlarga ko'proq e'tibor qaratadi, jamiyatda ustun mavqega ega	uy-ro'zg'or ishlari, farzand tarbiyasi va kasb faoliyatini boshlash, teng huquqlar va karyera imkoniyatlari uchun kurashish	ayollarning oliy ta'limga ommaviy kirib kelishining boshlanishi
X avlod	1965–1980	ayollar bilan oilaviy majburiyatlarni baham ko'rish, tenglikni qo'llab-quvvatlash, karyera va shaxsiy rivojlanishga yo'nalganlik	mehnat faoliyatida faol ishtirok etish va karyera qurish, erkaklar bilan uy ishlarini taqsimlash	ayollarning mustaqilligini ta'minlovchi yuqori darajadagi ta'lim
Y avlod (ming-yilliklar)	1981–1996	farzand tarbiyasi va uy yumushlarida teng ishtirok etish, ish va shaxsiy hayot o'rtasida muvozanatga intilish	to'laonli kasbiy faoliyat va karyera, turmush o'rtog'i bilan majburiyatlarni taqsimlash	gender tengligiga hissa qo'shuvchi oliy ta'limning keng tarqalishi
Z avlod	1997–2012	oil va jamiyatdagi rollarning tengligi hamda xilma-xilligini to'liq qo'llab-quvvatlash, uy vazifalari, shuningdek, farzand tarbiyasida faol ishtirok etish	kasbiy o'sish va o'zini faol namoyon etish, hayotning barcha sohalarida teng imkoniyatlarga intilish	teng huquqlilikni shakllantirishga yordam beradigan global va raqamli ta'lim imkoniyatlari
Alfa avlodi	2010-yildan hozirgi kungacha	gender rollariga nisbatan to'liq tenglik qarashlari, an'anaviy stereotiplarsiz tarbiyalash	hayot va kasb faoliyatining barcha jabhalarida teng huquqlilik, gender stereotiplarsiz avlod tarbiyalash	shaxsiyatni va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi, gender stereotiplarini yo'qotishga ko'maklashuvchi raqamli ta'lim

²⁷ Как обучаются представители поколений X, Y, Z – Московский Технологический Институт. (2019, December 17) // <https://mti.moscow/articles/kak-obuchayutsya-predstaviteli-pokolenij-x-y-z?>

²⁸ Muallif ishlanmasi

Milleniallar avlodi 1990-yillarning oxiri–2000-yillarda oliy ta'lim ommaviy va talabgor bo'lgan davrda ulg'aydilar. Ko'plab mamlakatlarda aynan milleniallar orasida oliy ma'lumotli insonlarning ulushi eng yuqori darajaga yetdi. Milleniallarning o'rtacha ta'lim darajasi ota-onalarinikidan sezilarli darajada yuqori: aksariyati to'liq o'rta ma'lumotga ega, ko'pchiligi oliy o'quv yurtini tamomlagan, yana ko'plari magistratura va aspirantura kabi diplomdan keyingi darajalarni ham olishgan. Jahon miqyosida bu avlodning yoshi kattalari oliy ta'lim qamrovi bo'yicha peshqadamlik qilmoqda. Dunyodagi 25-34 yoshli odamlarning qariyb 41 foizi oliy ma'lumotlidir²⁹. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich yanada yuqori: taxminan 45%, ba'zi davlatlarda esa (masalan, Janubiy Koreya, Kanada) oliy ma'lumotli milleniallar ulushi 60 foizdan oshadi. Taqqoslash uchun: bebi-bumerlar orasida bunday yuqori ta'lim darajasi kamdan kam uchragan³⁰.

Miqdoriy o'sishdan tashqari, Y avlodda ta'lim tizimida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Milleniallar ayollari erkaklariga nisbatan o'rtacha yuqoriroq ma'lumotga ega bo'lgan birinchi avlod hisoblanadi. Bebi-bumerlar va dastlabki X avlod erkaklari biroz ko'proq oliy ma'lumot olgan bo'lsa, X avlod ayollari erkaklar bilan tenglashdi, milleniallar orasida esa ayollar ulardan o'zib ketdi: masalan, AQShda 2018-yilga kelib, millennial ayollarning 43 foizi bakalavr darajasini tugatgan bo'lsa, erkaklar orasida bu ko'rsatkich 36 foizni tashkil etdi. Shunga o'xshash tendensiya butun dunyoda kuzatilmoqda: hozirda oliy ma'lumotli ayollarning o'rtacha ulushi tengdosh erkaklarga qaraganda yuqoriroq. Bu muhim ijtimoiy o'zgarishni aks ettiradi: islohotlar va jamiyat qarashlarining o'zgarishi natijasida ta'lim sohasida ayollarning huquq va imkoniyatlari kengaydi³¹.

Z avlodi "zumerlar" deb ham ataluvchi, 1990-yillarning o'rtalaridan 2010-yillarning boshla-

rigacha tug'ilgan insonlarni o'z ichiga oladi. Ular bolalikdan Internet, mobil qurilmalar va ijtimoiy tarmoqlar bilan o'sib, raqamli texnologiyalar tez rivojlanayotgan davrning ilk "yerning raqamli aholisi" bo'lib, Z avlodi gender rollarini tushunish va shakllantirishda oldingi avlodlarga nisbatan sezilarli o'zgarishlarni namoyon etmoqda. Bu avlodning ko'p vakillari gender masalalarida moslashuvchanlikka intiladi hamda ko'pincha erkak va ayol rollari haqidagi an'anaviy ikki tomonlama qarashlarga tanqidiy qarashadi. Z avlodi vakillarining 62 foizi gender rollarining moslashuvchanligi g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi, bu oldingi avlodlardan 7 foiz yuqori. Zumerlarning 34 foizi ota oila boshlig'i bo'lishi kerak degan fikrga qo'shilmaydi, bu katta avlodlarga nisbatan 4 foiz ko'p³².

Z avlodi bugungi o'smirlar va yosh kattalar faol ta'lim olish yoshiga qadam qo'ymoqda. Dastlabki ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Z avlodi tarixdagi eng bilimlil avlodga aylanishi mumkin. Hozirning o'zida rivojlangan mamlakatlarda 2010-yillarning oxiri – 2020-yillarning boshlarida yoshlar orasida o'rta maktabni tamomlashi va universitetga kirish bo'yicha rekord darajadagi yuqori ko'rsatkichlar qayd etilmoqda. Masalan, AQShda Z avlodining o'rta maktabni tugatish va kollejlarga kirish darajasi xuddi shu yoshdagi oldingi avlodlarga qaraganda yuqori. Avstraliyada 20-30 yoshda ta'limni davom ettirayotgan yoshlar ulushi oshdi: 2021-yilda milleniallarning taxminan 19 foizi hali ham ta'lim olayotgan bo'lsa, 2006-yilda X avlodi uchun bu ko'rsatkich 17 foiz, 1991-yilda bumer avlodi uchun esa atigi 12 foizni tashkil etgan. Bu quyidagi umumiy tendensiyaning ko'rsatadi: yoshlar ta'lim tizimida uzoqroq qolib, o'z malakalarini oshirmoqda. Ulg'aygan sari Z avlodi vakillari oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ma'lumotga ega bo'lganlar ulushi bo'yicha milleniallardan o'zib ketishi kutilmoqda. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Z avlodi bolaligidan "yerning raqamli aholisi" hisoblanadi, bu ularning ta'lim olishiga ham yordam beradi. Ular ma'lumot izlash, onlayn resurslardan foydalanish va raqamli platformalar orqali yangi ko'nikmalarni mustaqil ravishda o'zlashtirish qobiliyatiga ega. Pew Research Center ma'lumotlariga ko'ra, Z

²⁹ Как вы относитесь к раннему развитию и обучению ребёнка? - 275 ответов на форуме Woman.ru (6097995). (2025, February 8). Woman.ru // <https://www.woman.ru/kids/healthy/thread/6097995/5>

³⁰ https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2020/09/education-at-a-glance-2020_19b01e87/69096873-en.pdf

³¹ Mitchell, T., & Mitchell, T. (2024b, April 14). Millennial life: How young adulthood today compares with prior generations. Pew Research Center // <https://www.pewresearch.org/social-trends/2019/02/14/millennial-life-how-young-adulthood-today-compares-with-prior-generations-2>

³² Karaca, M. (2025, March 3). Meet Gen Z: redefining gender roles and challenging patriarchy. Glocalities. <https://glocalities.com/reports/meet-gen-z>

avlodi “mavjud avlodlar orasida eng bilimli avlodga aylanish yo‘lida ilgarilamoqda”³³.

2010-yildan boshlab tug‘ilgan Alfa avlodi gender rollarini qabul qilish va ta‘limga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan tezkor ijtimoiy va texnologik o‘zgarishlar sharoitida o‘tib-ulg‘aymoqda. Alfa avlodi vakillari an‘anaviy gender chegaralarini yo‘qotish tendensiyasini namoyon etmoqda. Tenglik va shaxsiylik tamoyillariga asoslangan tarbiya bolalarning erkak va ayol rollari haqidagi qoliplashgan tasavvurlarga kamroq ergashishiga yordam beradi. O‘g‘il bolalar his-tuyg‘ularini ifoda etishga, qizlar esa kasbiy jihatdan o‘zini namoyon etishga rag‘batlantirilmoqda, bu esa qat‘iy gender me‘yorlarining asta-sekin yo‘qolishiga olib kelmoqda. Alfa avlodida gender tasavvurlarini shakllantirishda ta‘lim jarayoni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy ta‘lim dasturlari tanqidiy fikrlash, ijodiy qobiliyatlar va jinsidan qat‘i nazar, har bir o‘quvchiga individual yondashuvni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Bu bolalarda teng huquqlilik va xilma-xillikni hurmat qilish muhimligini anglashni shakllantiradi, shuningdek, ularga gender stereotiplarini tushunish va bartaraf etishda yordam beradi. Yangi avlod an‘anaviy gender rollari ahamiyatini yo‘qotayotgan, ta‘lim esa teng huquqli qarashlar va qadriyatlarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilayotgan muhitda ulg‘aymoqda³⁴.

Alfa avlodi – 2010-yillarning o‘rtalarida va undan keyin tug‘ilgan, hozirda ta‘lim olishni endi boshlayotgan bolalar. Alfa avlodi uchun ta‘lim olish imkoniyati tarixdagi eng yuqori darajaga yetgan: ular ta‘lim olish har bir kishining huquqi bo‘lgan va texnologiyalar o‘qitishning barcha bosqichlariga singib ketgan dunyoda ulg‘aymoqda.

Birinchidan, Alfa avlodi tug‘ilganidan boshlab raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega. Planshetlar, smartfonlar, yuqori tezlikdagi internet – bularning barchasi ularga juda yoshligidan interaktiv tarzda ma‘lumot va bilim olish imkonini

beradi. Natijada, Alfa avlod bolalari axborot va texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini tabiiy ravishda o‘zlashtiradilar, bu esa keyingi ta‘lim olishni yengillashtiradi.

Ikkinchidan, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim jadal rivojlanmoqda. Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari dasturlarni o‘quvchining individual sur‘ati va qiziqishlariga moslashtirishga imkon beradi. Ular uchun an‘anaviy “barcha uchun bir xil” modeli eskirib bormoqda. Buning o‘rniga yangi raqamli vositalar: interaktiv ilovalar, sun‘iy intellekt platformalari, virtual va kengaytirilgan reallik ta‘limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu texnologiyalar tezkor qayta aloqani, moslashuvchan topshiriqlarni ta‘minlaydi va o‘quvchilarni jalb etadi, o‘qitish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Bundan tashqari, Alfa avlodi hatto bebi-bumerlar bilan milleniallar bolaligida xayoliga ham keltira olmagan erta rivojlanish va ta‘lim dasturlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lib bormoqda.

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytganda, tarixan, ayollarning ta‘lim sohasidagi imkoniyatlarining kengayishi ularning iqtisodiy mustaqilligini va jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, erkaklar an‘anaviy qarashlarini qayta ko‘rib chiqishi gender rollarining yanada teng taqsimlanishiga olib kelgan. Bebi-bumer avlodidan Alfa avlodigacha bo‘lgan davrda ayollarning ta‘lim darajasi va ijtimoiy hayotga jalb etilishi izchil o‘tib borgan. Bu an‘anaviy gender rollarining qayta ko‘rib chiqilishiga va oilada yanada muvozanatli xulq-atvor modellarining shakllanishiga sabab bo‘lmoqda.

Z va Alfa avlodlarida raqamli texnologiyalarning roli sezilarli darajada ortib bormoqda, bu esa ta‘lim sifati va qulayligini oshirmoqda. Onlayn kurslar va interaktiv platformalar geografik va ijtimoiy to‘siqlarni yengib o‘tishga, shuningdek, gender farqlarini yanada kamaytirishga yordam bermoqda.

Zamonaviy raqamli platformalar ta‘lim dasturlarini o‘quvchilarning shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlariga moslashtirish imkonini beradi. Bu gender stereotiplarining kasbiy tanlovga ta‘sirini sezilarli darajada kamaytiradi va jinsidan qat‘i nazar, bilim olishga keng yo‘l ochadi.

Patriarxal madaniyatning saqlanib qolayotgan ta‘siriga qaramay, davlat tuzilmalarining sa‘y-harakatlari va global jarayonlarning ta‘siri ayollar-

³³ Mitchell, T., & Mitchell, T. (2024c, July 29). On the Cusp of Adulthood and Facing an Uncertain Future: What We Know About Gen Z So Far. Pew Research Center // <https://www.pewresearch.org/social-trends/2020/05/14/on-the-cusp-of-adulthood-and-facing-an-uncertain-future-what-we-know-about-gen-z-so-far>

³⁴ Петровиченко, О. (2021, June 24). Поколение Альфа: Какими будут дети в недалеком будущем? Пятый Канал // <https://www.5-tv.ru/tabloid/348377/pokolenie-alfa-kakimi-budut-deti-v-nedalekom-budusem>

ning ta'lim va kasbiy muhitda yanada faol ishtirok etishiga ko'maklashmoqda. Bu tenglik sari qo'yilgan muhim qadam sifatida baholanmoqda.

Taklif va tavsiyalar:

- gender tengligi mavzularini maktab va oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga kiritish;
- o'qituvchilar uchun ta'lim jarayonida stereotiplar va kamsitishlarning namoyon bo'lishini aniqlash va bartaraf etishga yordam beradigan maxsus treninglar tashkil etish;
- qizlarda ilm-fan va texnologiyalarga qiziqishni uyg'otishga qaratilgan to'garaklar va tanlovlarni rivojlantirish;
- texnik va ilmiy yo'nalishlardagi mutaxassisliklarni tanlagan qizlarga stipendiya va grantlar ajratish, shuningdek, ushbu sohalarida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash uchun oliy ta'lim muassasalari va biznes markazlari o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- ayollarni ilmiy darajalar (magistratura, doktorantura) olishga va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga rag'batlantiruvchi maxsus loyihalarni shakllantirish;
- tajribali mutaxassislar yosh ayol mutaxassislarga maslahat bera oladigan ustoz-shogird tizimini yaratish;
- vaqt yoki joylashuv jihatidan cheklangan kishilarga ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash uchun onlayn platformalar, virtual kurslar va moslashuvchan ta'lim sxemalarini joriy etish;

– ota-onalar va ishlaydigan mutaxassislar uchun o'qishni uy va kasbiy vazifalar bilan uyg'unlashtirish imkonini beruvchi moslashuvchan dasturlarni ishlab chiqish;

– er-xotin o'rtasida majburiyatlarni teng taqsimlash zarurligi, farzandlar tarbiyasida birgalikda ishtirok etish muhimligi haqida ijtimoiy kampaniyalar o'tkazish va ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumot tarqatish;

– ota-onalar uchun oilada hamkorlik va o'zaro qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ko'rsatuvchi kurslar va maslahatlar tashkil etish;

– turli sohalarida ayollarning malakasini oshirish va bandligini ta'minlash bo'yicha qo'shma tashabbuslarni ishlab chiqish, moslashuvchan ish jadvali va masofaviy ish formatini rag'batlantirish;

– korxonalarni korporativ bolalar bog'chalari, kasbiy rivojlanish dasturlari, shuningdek, ayollarni qo'llab-quvvatlovchi boshqa ijtimoiy imtiyozlarni joriy etishga undash;

– ta'lim va mehnat bozorida erkaklar va ayollarning ishtiroki bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni muntazam ravishda to'plash va tahlil qilish, bunda avlodlararo o'zgarishlar dinamikasiga alohida e'tibor qaratish;

– gender tadqiqotlari sohasida ilg'or tajriba almashish va ilmiy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy anjumanlar va xalqaro loyihalarni tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Исаева М. Поколения кризиса и подъема в теории В. Штрауса и Н. Хоува / М. Исаева // Знание. Понимание. Умение. — 2011. — № 3. — С. 290–295
2. Subrahmanian, R. (2005). Gender equality in education: Definitions and measurements. *International Journal of Educational Development*, 25. pp. 395-407.
3. Van Bavel, J., Klesment, M., Beaujouan, É., Brzozowska, Z., Puur, A., Reher, D., Requena, M., Sandström, G., Sobotka, T., & Zeman, K. (2018). Seeding the gender revolution: Women's education and cohort fertility among the baby boom generations. *Population Studies*, 72. pp. 283 - 304.
4. Minasyan, A., Zenker, J., Klasen, S., & Vollmer, S. (2019). Educational gender gaps and economic growth: A systematic review and meta-regression analysis. *World Development*.
5. Verdugo-Castro, S., García-Holgado, A., & Sánchez-Gómez, M. (2022). The gender gap in higher STEM studies: A systematic literature review. *Heliyon*, 8.
6. Molla, E. (2016). The Role Of School In Gender Socialization, 03.
7. There are 1.8 billion millennials on Earth. here's where they live, World Economic Forum. (n.d.). <https://www.weforum.org/stories/2021/11/millennials-world-regional-breakdown/> (accessed April 4, 2025).
8. Discover latest Gen Z statistics (2025) | StatsUp. (n.d.) // <https://analyzify.com/statsup/gen-z>

9. Topic: Generation Alpha in the United States. (2024, July 3). Statista // <https://www.statista.com/topics/12495/generation-alpha-in-the-united-states/#topFacts>
10. Количество россиян с высшим образованием превысило 31 процент. (2021, June 14) // <https://rg.ru/2021/06/15/kolichestvo-rossiian-s-vysshim-obrazovaniem-prevysilo-31-procent.html>.
11. FasterCapital: The global venture builder and online incubator - FasterCapital. (n.d.). FasterCapital // <https://fastercapital.com/ru/>
12. Леонова, Е. (2025, March 26). Теория поколений от X до Z (и почему это важно). HURMA // <https://hurma.work/ru/blog/teoriya-pokolenij-ot-x-do-z-cto-nuzhno-znat-cto-by-rabotat-vmeste>
13. Mitchell, T., & Mitchell, T. (2024, April 14). Millennial life: How young adulthood today compares with prior generations. Pew Research Center // <https://www.pewresearch.org/social-trends/2019/02/14/millennial-life-how-young-adulthood-today-compares-with-prior-generations-2>
14. Дудырев, Ф. Ф., Романова, О. А., Шабалин, А. И., & Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики», Институт образования. (2017). СТАРШАЯ ШКОЛА И ЕЕ АЛЬТЕРНАТИВЫ в СОВЕТСКОЙ и РОССИЙСКОЙ ПРАКТИКЕ [Современная аналитика образования]. Современная Аналитика Образования, № 6(14), 52 // <https://ioe.hse.ru/pubs/share/direct/408112846.pdf>
15. Кашкаров, И. Д., & Тарасовская, А. М. (2022). АНАЛИЗ ЦЕННОСТЕЙ ПОКОЛЕНИЙ X И МИЛЛЕНИАЛОВ. In МГТУ им. Н.Э. Баумана, Политехнический Молодежный Журнал (р. 1) [Journal-article] // <https://doi.org/10.18698/2541-8009-2022-08-817>
16. Как обучаются представители поколений X, Y, Z - Московский Технологический Институт. (2019, December 17) // <https://mti.moscow/articles/kak-obuchayutsya-predstaviteli-pokolenij-x-y-z/>
17. Как вы относитесь к раннему развитию и обучению ребёнка? - 275 ответов на форуме Woman.ru (6097995). (2025, February 8). Woman.ru // <https://www.woman.ru/kids/healthy/thread/6097995/5>
18. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2020/09/education-at-a-glance-2020_19b01e87/69096873-en.pdf
19. Mitchell, T., & Mitchell, T. (2024b, April 14). Millennial life: How young adulthood today compares with prior generations. Pew Research Center // <https://www.pewresearch.org/social-trends/2019/02/14/millennial-life-how-young-adulthood-today-compares-with-prior-generations-2>
20. Karaca, M. (2025, March 3). Meet Gen Z: redefining gender roles and challenging patriarchy. Glocalities. <https://glocalities.com/reports/meet-gen-z> Mitchell, T., & Mitchell, T. (2024c, July 29). On the Cusp of Adulthood and Facing an Uncertain Future: What We Know About Gen Z So Far. Pew Research Center // <https://www.pewresearch.org/social-trends/2020/05/14/on-the-cusp-of-adulthood-and-facing-an-uncertain-future-what-we-know-about-gen-z-so->
21. Петровиченко, О. (2021, June 24). Поколение Альфа: Какими будут дети в недалеком будущем? Пятый Канал // <https://www.5-tv.ru/tabloid/348377/pokolenie-alfa-kakimi-budut-deti-vnedalekom-budusem>
22. Namangan davlat universiteti; <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/01/NamDU-ARM-12430.pdf>
23. World Population: Past, Present, and Future // <https://www.worldometers.info/world-population/>
24. O'zbekiston aholisi 37,5 milliondan oshdi; O'zbekiston aholisi bir yil davomida 2 foizga o'sib, 37,5 million kishidan oshdi. O'tgan yili tug'ilish darajasi 2017-yildan beri birinchi marta — 3,7 foizga kamaydi. 2024-yilda oxirgi 10 yildagi eng kam nikoh holati ham qayd etildi // <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/24/population-uz/>
25. Gender ratio in the World <https://statisticetimes.com/demographics/world-sex-ratio.php>
26. O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi; gender tatistikasi; gender.stat.uz
27. Wikipedia contributors. (2025, March 28). Baby boomers. Wikipedia // https://en.wikipedia.org/wiki/Baby_boomers
28. [Generational power index](#); by [visual capitalist](#) // <https://www.visualcapitalist.com/gpi/gen-x/>

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 27.12.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.